

## OLIV TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIMGA HUIJAT TOPSHIRISH JARAYONING BOSHQARUV MODULINI ISHLAB CHIQISH

*Islomov Baxtiyor Muston o'g'li*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti,  
«Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar» fakulteti 2-bosqich  
magistranti  
islomovbarsbek@gmail.com, +998912124171*

**Annotatsiya:** Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish natijasida stajyor-tadqiqotchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilarning yagona ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi va ularning faoliyati to'g'risida shaffof ma'lumotlarga ega bo'linadi. Shuningdek, OTM va ilmiy tashkilotlardagi doktorantura bo'limlarida ish yuritish elektron platforma orqali tashkil etiladi va buning natijasida oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga istiqbolli talabgorlarni jalb etish va o'tkaziladigan imtihon natijalari shaffofligini ta'minlash orqali ular orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish imkoni yaratiladi. OTM va ilmiy tashkilotlardagi mavjud ilmiy salohiyat haqidagi ma'lumotlar yil sayin yig'ilib boradi. Yaratiladigan Yagona elektron tizim bazasida respublikamizdagi mavjud ilmiy maktablar va ularning salohiyati haqida keng ma'lumotlarni olish, tahlil qilish va ular asosida milliy iqtisodiyotga zarur kadrlarni aniqlashda ratsional usullarni qo'llash imkoni yaratiladi.

**Kalit so'zlar:** doktorantura, stajyor-tadqiqotchi, mustaqil izlanuvchi, vazirliklar, intellektual tahlil, matematik model, algoritim, vazn.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimini yaratishdan asosiy maqsadi doktoranturaga qabul kvotalarini shakllantirish, tegishli vazirliklar, idoralar, tashkilotlar oliy ta'lim muassasa (keyingi o'rinlarda – OTM) va ilmiy tashkilotlarda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga qabul jarayonini tashkillashtirish, izlanuvchilarning ilmiy rahbarlari hamda konsultantlarning ish yuritish jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Shuningdek, quyidagilar tizimni ishlab chiqish uchun maqsadlar hisoblanadi:

- stajyor-tadqiqotchilar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning ish faoliyatini yuritishida o'zining shaxsiy kabinetidan foydalanishini tashkillashtirish. Ularning hisobotlari shaffofligini ta'minlash, Yagona elektron tizimida ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash;

- OTM va ilmiy tashkilotlarda mavjud ilmiy bazalarni faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida, ularning faoliyati natijadorligini baholovchi vosita ishlab chiqish;

- ilmiy darajali kadrlar tayyorlash uchun kvotalarni belgilashda OTM va ilmiy tashkilotlardagi mavjud ilmiy baza haqidagi ma'lumotlardan foydalanish;

- Yagona elektron tizimiga qabul jarayonlari bo'yicha ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash orqali, ajratilgan o'rinlarga potensial talabgorlarni sog'lom raqobat asosida tanlab olish bo'yicha dasturiy tizim yaratish va uni keng joriy etish;

- doktorantlar, ularning ilmiy rahbarlari va konsultantlari faoliyatini ob'ektiv baholash imkoniga ega bo'lish. Yagona ma'lumotlar bazasini tashkil etish orqali, ular tomonidan yaratilayotgan ilmiy yangiliklarni ishlab chiqarishga, iqtisodiyotga tadbiq etishga imkoniyatlar yaratish.

- xolislik tamoyillari asosida OTMlar va ilmiy tashkilotlarda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash sub'ektlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini monitoringini olib borish va baholash. Stajyor- tadqiqotchilikka, tayanch doktorantura va doktoranturaga oid kvotalarni shakllantirishda ushbu ma'lumotlardan foydalanish.

Joriy modulda tizim foydalanuvchilari haqidagi ma'lumotlarni shakllantirish, ularga tegishli vazifalarni yuklash ta'minlanadi. Bu modulda foydalanuvchilarni ro'yxatga olish, ular login va parolini yo'qotib quyganda tiklash amallarini bajariladi. Bu modulda foydalanuvchilarga 4 yildagi rol taqdim etilishi kerak:

1. Talabgor(Doktorant)
2. OTM (ITI) doktorantura bo'limi boshlig'i
3. Vazirlik mas'ul xodimi
4. Mas'ul xodimi

Tizimning bu qismida talabgorlarni stajyor-tadqiqotchilikka, tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka hujjat topshirishi jarayonlari avtomatlashtiriladi. "Doktorantura" yagona elektron tizimi id.gov.uz- Identifikatsiyalashtirishning yagona tizimi bilan bog'lanishi tashkil etilishi lozim. id.gov.uz bilan bog'lanish natijasida "Doktorantura" Yagona elektron tizimida doktoranturaga kiruvchi talabgorlar, stajyor- tadqiqotchilar, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar to'g'risida unikal ma'lumotlarni shakllantirish, ya'ni ularni tizimda bir marta ro'yxatdan o'tilishini, kerak bo'lganda ular haqidagi ma'lumotlarni tegishli tashkilotlarga yuborish imkonini yaratish masalalari hal qilinadi. id.gov.uz tizimi bilan bog'lanishda bu tizimning quyidagi imkoniyatlarini beruvchi funksiyalaridan foydalaniladi:

1. Foydalanuvchini avtorizatsiya qilish kodini olish;
  2. Avtorizatsiya kodi orqali id.gov.uz tizimiga kirish tokenini olish;
  3. Kirish tokeni yordamida foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlarni olish;
- id.gov.uz mijozlari bilan o'zaro aloqa qilish bo'yicha instruksiya ilovada keltirilgan. id.gov.uz tizimi bilan bog'lanishda O'z DSt 2590 standarti talablarini inobatga olish lozim.

Ushbu qism quyidagi modullardan tashkil topadi:

1. Talabgorlarni ro'yxatdan o'tkazish moduli. Ushbu modulda O'zbekiston respublikasi rezidentlari bo'lgan id.egov.uz dagi akkaunti orqali, rezident bo'lmaganlar esa ekran formasida o'zlari haqida ma'lumotlarini kiritish orqali ro'yxatdan o'tadi.

2. Talabgorning shaxsiy va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni kiritish moduli. Ushbu modulda talabgor quyidagi ma'lumotlarni kiritadi:

- 2.1. Hujjat topshiradigan tashkiloti va ixtisosligi to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- 2.2. Ilmiy ishlari ro'yxati (fayllari bilan);
- 2.3. O'qishga topshirish to'g'risidagi hujjatlari nusxalari;




1-rasm. Talabgor hujjatlarini OTM yoki ilmiy tashkilotlarga topshirish jarayoni BPMN sxemasi

3. Talabgor hujjatlarini tegishli OTM yoki ilmiy tashkilotga jo'natish moduli. Ushbu modulda talabgor haqidagi barcha ma'lumotlar u ko'rsatgan OTM va ilmiy tashkilotlarga topshirilishi amalga oshiriladi. Bu quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 3.1. Talabgor haqidagi barcha ma'lumotlar "Ko'rinish" oynasida chiqariladi.
- 3.2. "Ko'rinish" oynasidagi "Yuborish" tugmasini bosish orqali talabgor ma'lumotlari statusi "Yuborilgan" ga o'zgartiriladi

4. Talabgor ma'lumotlarini qabul qilish moduli. Ushbu modulda OTM va ilmiy tashkilotlarning doktorantura bo'limi tomonidan talabgor hujjatlarini qabul qilish yoki sabablari ko'rsatilgan holda rad etish amalga oshiriladi.

Talabgor hujjatlarini boshqa tashkilotga adashib yuborgan bo'lsa va o'zining shaxsiy kabinetini orqali o'z hujjatlarini qaytarib olish imkoniga ega bo'lishi lozim.



2-rasm. Talabgor xatolik orqali yuborgan hujjatlarni qaytarib olish va topshirishini tashkiletish jarayoni BPMN sxemasi

Tizim administratorligi qismi. Bu qismda tizimni ma'murlash va himoyalash, foydalanuvchilarni hisobini yuritish, ularni huquqlarini boshqarish, tizimdagi xodisalarni monitoring kilish va tizim ma'lumotnomasi yuritish vazifalari bajariladi.

Tizimda quyidagi ma'ulumotnomalar administartorlik kismi tomonidan yuritiladi


1. O'zbekiston respublikasidagi OTMlari va ITI lari ro'yxati
2. Tizim foydalanuvchilari ro'yxati
3. O'zbekiston respublikasidagi ixtisosliklar ro'yxati
4. O'zbeiston respublikasidagi viloyatlar, shaharlar, tumanlar ro'yxati
5. Tarkibida Oliy ta'limdan keyingi ta'limni olib boruvchi tashkilotlar (Vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar) ro'yxati

Va boshqa spravochniklar ushbu modul tomonidan yuritiladi.


Avtorizatsiya va autentifikatsiya modulida foydalanuvchilari haqidagi ma'lumotlar, ularga tegishli vazifalar, tizimga kirish usullari haqidagi ma'lumotlar to'liq keltirilishi kerak.




3-rasm. Foydalanuvchilar ro'yhatdan o'tish yoki ro'yhatdan o'tgan foydalanuvchilar kirish qismi.



4-rasm. Ro'yhatdan o'tish qismi.



5-rasm. Ro'yhatdan o'tgan foydalanuvchi oynasi qismi.



6-rasm. Foydalanuvchi talab etilgan hujjatlarni yuklash qismi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu loyiha har ikki tomon(mijoz va tashkilotlar) uchun manfaat keltiribgina qolmay, o‘zining ko‘p funksiyaliligi bilan ko‘pgina savollarga javob bo‘ladi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Tizimdan foydalanish orqali foydalanuvchilar o‘zlaring samarali ehtiyojlarini samarali ravishda qondirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.“Doktorantura” Yagona elektron tizimni yaratishdan asosiy maqsadi doktoranturaga qabul kvotalarini shakllantirish, tegishli vazirliklar, idoralar, tashkilotlar oliy ta’lim muassasa (keyingi o‘rinlarda – OTM) va ilmiy tashkilotlarda oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga qabul jarayonini tashkillashtirish, izlanuvchilarning ilmiy rahbarlari hamda konsultantlarning ish yuritish jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-3213410?query=doktorantura#sr-1>
2. В.Ф. Максимов, Г.В. Стадницкий. Введение в специальность. Ленинград, 1988, 1680 с,
3. A.Radjabov, A.D.Raxmatov, A.X.Vohidov. Mutaxassislikka kirish. T., 2008, 82-b.
4. A.T.Turabayev, M.X.Axmedova. «Mutaxassislikka kirish» fanidan
5. ma’ruzalar to‘plami, 2003, 49-b.